

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибатуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Fonetik va fonematik nutq buzilishli bolalarda sezgi idroklarining tavsifiy holati

Xosilova Ziyofat Begmurotovna, Azizxonova Ruqiya Nasri qizi

Описательное состояние сенсорного восприятия у детей с фонетическими и фонематическими нарушениями речи

Хосилова Зиефат Бегмуротовна, Азизханова Рукия Насри кызы

Descriptive state of sensory perception in children with phonetic and phonematic speech disorders

Xosilova Ziyofat Begmurotovna, Azizkhanova Rukiya Nasri kizi

Received: May 12, 2025 Revised: May 16, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya.** Nutqning fonetik-fonematik tomondan rivojlanmaganligi – bu tovushlarni talaffuz etish va idrok qilish jarayonidagi kamchiliklar natijasida bolalarda muloqot tilidagi tovushlarni talaffuz qilish tizimi shakllanishining buzilish jarayoni hisoblanadi. Bu holatdagi nutqning kamchiligidagi nutqning idrok va talaffuz qilish nuqsonlariga asoslangan fonetik va fonematik tomonining buzilishi oldinda turadi. Shu bilan bir holatda bolalarda ba'zan leksika-grammatik rivojlanishida yaqqol ifodalanmagan orqada qolish hollari ham kuzatiladi. Fonetik-fonematik nutq nuqsonli bolalarga xos bo'lgan yana bir holat artikulyatsion yoki akustik belgilariga ko'ra farq qiladigan tovushlarning shakllanish jarayonining oxiriga yetmaganidir. Nutqda differensiallashmagan tovushlarning bo'lishi, tovushlarni almashtirish, nutq jarayonida ularni qo'llamaslik, ko'pgina tovushlarni buzib talaffuz qilish, tovushlarni eshitishga ko'ra yetarli farqlamaslik holatlari aynan shu vaziyatli bolalarda kuzatiladi.
- **Kalit so'zlar.** Nutq, fonetik, fonematik, sensor funksiya, normal, rivojlanish, tovush, talaffuz, eshitish idroki, intonatsiya.
- **Абстрактный.** Фонетико-фонематическое недоразвитие речи — процесс нарушения формирования системы произношения звуков коммуникативного языка у детей вследствие недостатков в процессе произношения и восприятия звуков. В данном случае речевые нарушения представляют собой прежде всего нарушения фонетической и фонематической сторон речи, в основе которых лежат дефекты восприятия и произношения. В то же время у детей иногда наблюдаются небольшие отставания в лексическом и грамматическом развитии. Другим состоянием, характерным для детей с нарушениями фонетико-фонематическим речи, является то, что у них не завершен процесс формирования звуков, различающихся по артикуляционным или акустическим характеристикам. У детей с данной патологией наблюдается наличие недифференцированных звуков в речи, подмена звуков, неиспользование их в речевом процессе, искаженное произношение многих звуков, недостаточная дифференциация звуков на слух.
- **Ключевые слова.** Речь, фонетика, фонема, сенсорная функция, норма, развитие, звук, произношение, слуховое восприятие, интонация
- **Abstract.** Underdevelopment of speech from the phonetic-phonemic side is a process of disruption of the formation

of the system of pronunciation of sounds in the communicative language in children as a result of deficiencies in the process of pronunciation and perception of sounds. In this case, speech defects are preceded by a violation of the phonetic and phonemic side of speech, which is based on defects in perception and pronunciation. At the same time, children sometimes have a pronounced lag in lexical-grammatical development. Another condition characteristic of children with phonetic-phonemic speech disorders is the incomplete formation of sounds that differ in their articulatory or acoustic characteristics. The presence of undifferentiated sounds in speech, the substitution of sounds, their non-use in the speech process, the distortion of many sounds, and the insufficient differentiation of sounds by hearing are observed in children with this condition.

- **Keywords:** Speech, phonetics, phonemics, sensory function, normal, development, sound, pronunciation, auditory perception, intonation.

KIRISH

Nutqning hosil bo'lishi bolaning fiziologik holati bo'lib, eshitish sensor tizimi embrional davrdayoq normal shakllanib borishi natijasida, atrof-muhitdan kelayotgan tovushlarni qabul qilib, tahlil qilinishi natijasida shakllanadi. Eshituv organlari hamda ovoz apparatlarining to'laonli rivojlanganligi, oliy nerv faoliyati va impulsni qabul qiluvchi retseptiv zonalarining to'g'ri rivojlanishi, bevosita nutqning to'la-to'kis shakllanishini ta'minlaydigan asosiy tizimlar hisoblanadi. Bundan tashqari, hayot tarzi davomida turli xil psixologik, abiotik, biotik, antropogen omillarning ham normal nutqning shakllanishida o'z ta'siri bor. Yuqoridagi ta'sir ko'rsatuvchi faktorlarning buzilishi yoki funksional tizimlarning me'yorda faoliyat yuritmasligi oqibatida nutqning buzilish holatlari bolalarda kuzatilishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'lumotlarda keltirilishicha, fonematik idrok sensor funktsiya sifatida juda erta shakllanadi. Tadqiqotchil olimlar fonematik eshituv nutqiy muloqotning asosi ekanligini o'z ilmiy ishlarida asoslaganlar. Jumladan, L.S.Vigotskiy (1934), L.T.Shvorts (1931), N.M.Shelovanov (1954), A.N.Gvozdev (1981), A.M.Leontev (1961), G.L.Rozengard-Pupka (1963), L.V.Neyman (1970) hamda V.I.Belyukovlar nutqiy muloqotning asosi fonematik eshituv idroki deb tushunganliklarini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, N.X.Shvachkin bola nutqining individual idrok qilish jarayonining rivojlanishida ikkita davrni ajratgan: nutqning fonemagacha bo'lgan rivojlanishi hamda fonemali nutq kabi. Fonemagacha bo'lgan davrda bola kattalar nutqi intonatsiyasiga, uning ritmiga, so'zlarning umumiy tovush tizimiga reaksiya ko'rsatadi. Bolada muloqotning nutqiy shakllariga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'la boshlaydi. Bu davrga kelib bola tovushlarni idrok qila boshlaydi, so'zlardan fikrni ifodalash maqsadida foydalanadi. Xuddi shu davrni N.X.Shvachkin "fonemali nutq" deb ataganva nutqiy

tizimini shakllantiruvchi deb hal qiluvchi baho bergan.

V.G.Ananev (1955) nutqiy eshitishni ikki xil shaklda o'rganib chiqadi, ya'ni absolyut va ajratuvchi eshitish sezgilariga ajratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Idrok qilishning fonematik buzilishi nutq nuqsoniga ega bolalarning hammasida kuzatiladi, bunda nutq-eshitish va nutq-harakat analizatorlari orasidagi bog'liqlik bo'lmasligi kuzatiladi. Ma'lumki, dizartriya va rinolaliyada uchraydigan nutq harakat analizatori funksiyasining buzilishi tovushlarini eshitish orqali idrok qilishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (G.F.Sergeyeva).

Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda tovushlarni ajratishda qiyinchiliklar uchraydi, bu esa nutqning tovush tomonining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bular yana ikkilamchi nuqson sifatida tovushlarni talaffuz qilishga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ular nutqidagi kamchiliklar asosida tovush talaffuz qilishdagi o'zgarishlar, ko'pgina almashtirishlar, artikulyatsiya apparati o'z funksiyasini to'liq bajarmasligi natijasida fonematik qabul qilishiga birinchi o'rinda ta'sir qilib, uning shakllanishiga yo'l quymaydi.

Sezgilar odatda soda, elementar jarayonlar bo'lib hisoblanadi, idrok esa murakkab psixik jarayondir. Bola idrok qilayotgan narsalar nihoyatda xilma-xildir. Bular jumlasida turli buyumlar, san'at asarlari, musiqa, og'zaki va yozma nutq kiradi. Bu narsalar va hodisalar bir-biridan ajralgan holda emas, balki boshqa ko'plab narsalar bilan makon va vaqt jihatdan bir-biri bilan bog'langan holda idrok qilinadi. Bola dunyoga kelganda uning sezgi organlari shakllanib bo'lgan bo'ladi, lekin ushbu sezgilarning me'yordagi funktsiyasi atrof-borliqni idrok etishni ta'minlaydi.

Idrok etish jarayoni to'g'ri shakllanishi uchun maqsadga yo'naltirilgan hissiy tarbiya zarur va muhimdir. Bolaga ko'rishni, barmoqlar bilan paypaslashni, obyektlarni eshitishni o'rgatish kerak, ya'ni unda idrok qilish harakatlarini shakllantirish kerak.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda ko'rish orqali idrok qilishni tekshirish natijasida ularda bu jarayonlar o'z normasida qolishi hamda ular obrazni yaxlitligichaidrok etadi va me'yordagi bolalardan farq qilmaydi, degan xulosani bildirgan Y.M.Mastyukova.

Biroq nutq nuqsonlariga ega bolalarga berilgan vazifalar murakkablashtirilganida qiyinchiliklar paydo bo'lganligini ko'rish mumkin. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutqi sog'lom bolalarnikidan ajralib turadi: ular idrok etish uchun sonroq, oddiy tushunchalarni tanlashadi. Ko'pchilik nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar geometrik shakllarni ko'rish jarayonida uning shakliga emas, rangiga ahamiyat beradilar. Kichik maktab yoshidagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning ko'rib idrok etishini tekshirish jarayonida dizartriya, alaliya kabi nutq kamchiliklarida idrokning quyidagi buzilishlari kuzatiladi: optik, atrof-muhit, tasavvurlar, yuzaga tegishli bo'lgan belgilar, barmoqlar va artikulyatsiya a'zolari harakati, taktil-harakat a'zolari yordamida idrok etish kabi (L.S.Svetkova, T.M.Pirxalayshevili).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi keltirilgan manbaalardan shuni xulosa qilish mumkinki, demak, idrok va nutq o'zaro chambarchas bog'liq. Har bir idrok nutqda ifodalanadi. Odamning idroki sezgi organlariga ta'sir ko'rsatayotgan biron narsaning oddiygina obrazi emas, balki odamning tajribasi zaminida anglab, tushunib olgan obrazi hisoblanadi.

Nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalarda esa idrokning barcha turlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Shu boisdan ular bilan olib boriladigan korreksion-logopedik mashg'ulotlarda nutq kamchiliklarini to'g'rilash bilan bir qatorda idrokni rivojlantirish ham talab etiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Xosilova Ziyofat Begmurotovna – Axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti - katta o'qituvchi / Хосилова Зиёфат Бегмуратовна – Университет информационных технологий и управления – старший преподаватель / Khosilova Ziyofat Begmurotovna – University of Information Technologies and Management – senior lecturer.**

► ziyofatxosilova81@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0003-8596-6348>

2. **Azizxonova Ruqiya Nasri qizi – Axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti - Defektologiya 2 bosqich talabasi / Азизханова Рукия Насри кызы – Университет информационных технологий и управления - студентка 2 курса кафедры дефектологии / Azizkhanova Rukiya Nasri kizi – University of Information Technologies and Management - 2nd year student of Defectology.**

► ruqiyaazizhonova@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0002-6314-1751>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. G'oziyev E. "Yosh psixologiyasi" - T., 1994.
- [2]. Mamedov K.Q., Shoumarov G.B. "Aqli zaif bolalar psixologiyasi" - T., "O'qituvchi", 1994.
- [3]. Adizova S. "O'qituvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari". - T., 2002.
- [4]. Ayupova M. "Logopediya" -- T., 2011.
- [5]. Mo'minova L.R. va boshqalar. "Maxsus psixologiya" – "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", T.: 2013.
- [6]. Kuchkarova F.X. "Maxsus psixologiyada bolalar idrokini rivojlantirish muammosi", "Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi", 2/2021.